

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

MATCHANOV MUZAFFAR JUMANAZAROVICH

**GEOFAZOVIIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XORAZM VOHASI
EKOLOGIK XAVFSIZLIGINI TABIIY GEOGRAFIK BAHOLASH
(O‘ZBEKISTON QISMIDA)**

11.00.01 – Tabiiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Geografiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктор (DSc)
по географическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc)
on geographical sciences**

Matchanov Muzaffar Jumanazarovich

Geofazoviy texnologiyalar asosida Xorazm vohasi ekologik xavfsizligini tabiiy geografik baholash (O‘zbekiston qismida) 3

Матчанов Музаффар Жуманазарович

Физико-географическая оценка экологической безопасности Хорезмского оазиса на основе геопространственных технологий (часть Узбекистана)..... 25

Matchanov Muzaffar Jumanazarovich

Physico-geographical assessment of the ecological safety of the Khorezm oasis based on geospatial technologies (in the Uzbekistan part)..... 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 55

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

MATCHANOV MUZAFFAR JUMANAZAROVICH

**GEOFAZOVIIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XORAZM VOHASI
EKOLOGIK XAVFSIZLIGINI TABIIY GEOGRAFIK BAHOLASH
(O‘ZBEKISTON QISMIDA)**

11.00.01 – Tabiiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/Gr62 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.samdu.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	Nig'matov Asqar Nig'matullayevich geografiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Rafikov Vaxob Asomovich geografiya fanlari doktori, professor Eshonqulov Ravshan Abdurazakovich texnika fanlari doktori, dotsent Alimkulov Nusratilla Raxmonkulovich geografiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 24-iyun soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (95) 410-20-10, faks: (0366) 239-19-36; E-mail: ik-geografiya2019@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№49 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh. Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 233-60-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 10-iyun kuni tarqatildi.
(2025-yil 2-iyundagi 10-raqamli reyestr bayonnomasi).



S.B.Abbasov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, g.f.d., professor

B.A.Meliyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, g.f.f.d., PhD,
dotsent

Q.S.Yarashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
g.f.d. (DSc), professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo hamjamiyati oldida turgan muhim muammolardan biri global miqyosda ekologik xavfsizlikni ta'minlashdir. Bu borada xalqaro tashkilotlar, jumladan BMTni "2030-yilgacha barqaror rivojlanish konsepsiyasi"¹ ning 3,6,13,14,15-maqсадlarida bir qator vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalar yechimida tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy vaziyatlar oqibatida yuzaga kelayotgan ekologik inqirozlar, iqlimning global isishi, ozon qatlamining yemirilishi, kislotali yomg'irlarning hosil bo'lishi, cho'llashish kabi ekologik xavfsizlikka doir masalalarga alohida urg'u berilgan bo'lib, ularning yechimini topish ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Jahon miqyosida hududlarning tabiiy geografik xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi va siyosiy sharoitlardan kelib chiqqan tarzda ekologik xavfsizlik masalasiga kompleks, xavf-xatarlar doirasida alohida hamda ahamiyatiga ko'ra uning birlamchi masalalariga yechim topish borasida tadqiqot ishlari keng amalga oshirilmoqda. Ilm-fan taraqqiyoti, ayniqsa geofazoviy texnologiyalarning rivojlanishi ushbu masalaning tezkor, davomiy va keng hududlardagi yechimini topishga imkon beradi. Bu borada Yer yuzasidagi geofizik jarayonlarni kuzatishga mo'ljallangan sun'iy yo'ldoshlar, jumladan Landsat, Sentinel va MODIS dasturlari geotasvirlardan foydalanishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Respublikamiz miqyosida ekologik xavfsizlikka tahdid soluvchi Orol dengizi inqirozi, atmosfera havosining ifloslanishi, qurg'oqchilik, cho'llashish, qishloq xo'jalik yerlarining yaroqsiz holatga kelishi, aholi salomatligining yomonlashuvi, zilzila, ko'chkilar, sel kelishi, surilma kabi geografik jarayonlarni bartaraf etish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" ning 79-81-maqсадlarida "Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish", "Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish"² yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jarayonlarni operativ kuzatish, ularda sodir bo'layotgan murakkab aloqadorliklarni aniqlash, geofazoviy texnologiyalar orqali baholash, monitoring qilish va prognozlashtirish, ekologik inqirozli hududlardan biri bo'lgan Xorazm vohasining O'zbekiston qismi geotizimlarida yuzaga kelayotgan va takrorlanayotgan qurg'oqchilik, chang-tuz bo'ronlari, cho'llashish kabi jarayonlarni innovatsion xarakterdagi geofazoviy texnologiyalarni keng qo'llagan holda ilmiy tahlil qilish, geografik baholash va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Barqaror rivojlanish maqsadlari":3,6,13,15.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 20.02.2022, PF-60 sonli farmoni.

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 13-yanvardagi “Kosmik faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabr “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-son, 2022-yil 28-yanvar “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” PF-60-son farmonlari, O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 8-fevral “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili” davlat dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-fevral “Ekologik xavfsizlik to‘g‘risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida” 95-son, 2023-yil 11-avgust “Iqlim o‘zgarishi va tabiiy ofatlar xavfiga nisbatan milliy harakatlar rejasini ishlab chiqish hamda samarali amalga oshirishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 362-son qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi”, VIII. “Yer haqidagi fanlar” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³. Ekologik muammolar, tabiiy va texnogen ofatlarni o‘rganish, boshqarish, baholash va monitoring qilish kabi ishlarda geofazoviy texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi xalqaro tashkilotlari: BMTning Tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish boshqarmasi (UNDRR), Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO), Tabiiy ofatlar xavfini boshqarish bo‘yicha global tashabbus (GIZ); ilmiy tadqiqot markazlari: Global ofatlarga tayyorgarlik markazi (GDPC), Tabiiy xavflar fanlari markazi (CNDS), Tabiiy xavflar va ularga chidamlilikni tadqiq qilish markazi (NHR3), Yevropa fazo agentligi (ESA, Yevropa Ittifoqi), Milliy okean va atmosfera ma‘muriyati (NOAA, AQSh va Yevropa Ittifoqi), Milliy aeronavtika va kosmik tadqiqotlar ma‘muriyati (NASA, AQSh) va boshqalarda olib borilmoqda.

Jahonda tabiiy va texnogen xavfli jarayonlarni chuqur tahlil qilishda geofazoviy texnologiyalarni qo‘llash, hududlarning ekologik xavfsizligini ta‘minlash va tabiiy resurslar salohiyatidan samarali foydalanishning tezkor real vaqt rejimidagi boshqaruvini takomillashtirish, qisqa muddatli istiqbolda ehtimoliy ekologik xavf-xatarlarni oldini olish mexanizmlarining ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishga oid bir qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: Geofazoviy texnologiyalar asosida namgarchil hududlarda qurg‘oqchilikni baholash bo‘yicha standart yog‘ingarchilik indeksi ishlab chiqilgan (Jahon meteorologiya tashkiloti; Amerika meteorologiya jamiyati, AQSh); o‘simlik qoplamini va bug‘lanish orqali qurg‘oqchilikni baholash maqsadida VCI va EDDI usullari taklif qilingan (Sun‘iy yo‘ldosh ilovalari va tadqiqotlar markazi (NOAA);

³ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: <https://www.springer.com>; <https://www.elsevier.com>; <https://repository.library.noaa.gov>; <https://developers.google.com/earth-engine/datasets/catalog>; <https://www.planet.com>; <https://www.emdat.be> va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

Atrof-muhit fanlarini tadqiq qilish bo'yicha hamkorlik instituti, Kolorado universiteti, AQSh); chang-tuz bo'ronlarini geofazoviy texnologiyalar asosida o'rganish uchun yorug'lik va albedo farqi – BTĐ, chang indeksining me'yorlashtirilgan farqi – NDDI ishlab chiqilgan (Xitoy fanlar akademiyasi, Geografiya va tabiiy resurslar tadqiqot instituti, Pekin, Xitoy), yaxshilangan chang indeksi – EDI takomillashtirilgan (Masofadan zondlash va raqamli yer instituti, Xitoy), Yaqin Sharq uchun alohida chang indeksi – MEDI ishlab chiqilgan (Shahrekord universiteti, Eron); cho'llashish jarayonini geofazoviy texnologiyalar yordamida o'rganishga qaratilgan qum indeksining me'yorlashtirilgan farqi – NDSI keng qo'llanilgan (BMTning Cho'llanishga qarshi kurashish konvensiyasi; FAO); harakatdagi qum massalarini ko'rsatuvchi – NDESI ishlab chiqilgan (Sidi Mohamed Ben Abdellah universiteti, Marokash), O'rta yer dengizi hududidagi cho'llanish jarayonlarini o'rganish va baholashga qaratilgan – MEDALUS modeli ishlab chiqilgan (Yevropa Ittifoqi birlashgan tadqiqotlar markazi, Italiya).

Jahonda geofazoviy texnologiyalarni qo'llagan holda ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha bir qator, jumladan quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda: arid iqlimli hududlarda qurg'oqchilik xavfini o'rganish, baholash, kartalashtirish, prognozlash orqali unga tayyorgarlik ko'rish, moslashish, oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish; sun'iy intellekt yordamida tabiiy va texnogen ofatlar xavfi bo'yicha oldindan ogohlantirish tizimini ishlab chiqish; aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida hududlar ekologik barqaqorligini ta'minlash; sun'iy yo'ldoshlar geotasvirlari yordamida hududlar ekologik xavfsizlik holatining monitoringini yuritish; tabiiy ofatlar zarar ko'lamini prognozlash; web platforma va web GATlar orqali fazoviy ma'lumotlar asosida hududlardagi o'rmon yong'inlari, chang tuz bo'ronlari, cho'llashish, suv toshqinlarini modellashtirish, tezkor va interaktiv boshqarish; real vaqt rejimidagi kuzatishlarni mavjud fazoviy ma'lumotlar bilan integratsiya qilish oqrali ekologik xavfsizlikka tahdid tug'diruvchi holatlarni boshqarish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kungacha jahon miqyosida ekologik xavfsizlikning: umumekologik jihatlarini V.I.Danilov-Danilyan (1997), P.M.Mische (1998), R.G.Mamin (2003), T.Ergashev, A.Ergashev (2007); falsafiy jihatlarini W.S.Swaminathan (2001), V.S.Polikarpov (2001), D.N.Xiao, W.B.Chen (2002), A.A.Sergunin (2003); iqtisodiy jihatlarini P.H.Gleick (1994), V.V.Gorbatovskiy, N.G.Ribalskiy (1996), V.N.Burkov va boshq. (2001), X.Shi (2006); siyosiy jihatlarini: J.J.Holst (1989), T.Homer-Dixon va boshq. (1993), I.De Soysa (1999, 2000); huquqiy jihatlarini T.Tillyayevlar (2004) tomonidan atroflicha o'rganilgan.

Geofazoviy texnologiyalar orqali ekologik xavfsizlikni jahon miqyosida hududlar kesimida uning umumiy masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarni S.M.Albrecht va boshqalar (2020), B.Tomaszewski (2020), A.Ghosh (2023) olib borganlar. Alohida qurg'oqchilik jarayoni bo'yicha Z.Abdol (2018), B.Brauns va boshq. (2020), D.Shah va V.Mishra (2020), F.Xiye, H.Fan (2021), Zh.Chen va boshq. (2022), Anne Van Loon va boshq. (2022), D.Jacob va boshq. (2022), K.Rakzynski, J.Der (2022), A.Dubey va boshq. (2023)ning tadqiqotlarini keltirish mumkin.

Chang-tuz bo'ronlarini geografik axborot tizimlari va masofadan olingan ma'lumotlar asosida J.Abuduwaili va boshq. (2010), S.Brekle va boshq. (2012), L.Spivak va boshq. (2012), F.Lou va boshq. (2013), M.R.Ekhtesasi, Z.Gohari (2013), S.Janae va boshq. (2014), G.Issanova, J.Abuduwaili (2017), B.Aghasi va boshq. (2019), Zh. Jin va boshq. (2020), A.Shamseddini, N.Middleton, (2021); D.Bolloorani va boshq. (2021), Zh.Chen va boshq. (2022), M.Abdolshanejad va boshq. (2024), L.Yun, H.Li, L.Xin Zhou (2024) kabilar yetarlicha o'rganganlar.

Cho'llashish jarayonini geofazoviy texnologiyalar yordamida tadqiq qilishni L.Munkhnasan va boshq. (2017), Ahmady-Birgani va boshq. (2017), F.Lili va boshq. (2018), A.Viorel va boshq. (2018), B.Chokri (2020), X.Han va boshq. (2020), T.Reem va E.Al-Khaqani (2020), D.Bolloorani va boshq. (2020), N.Alexander va boshq. (2020), X.Meng va boshq. (2021), T.Sinsin va boshq. (2021), R.Daniela va boshq. (2022), J.Ibanez va boshq. (2022), B.P.Kumar va boshq. (2022), M.Jessica va boshq. (2022), S.Farah va boshq. (2022), M.Theilon va boshq. (2023), I.Aslanov va boshq. (2023), M.Lamaamri va boshq. (2023), I.Saleh va boshq. (2023) kabi izlanuvchilarning ilmiy asarlarida uchratish mumkin.

O'zbekistonda geofazoviy texnologiyalarni qo'llash bo'yicha turli sohalarda ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, landshaft xususiyatlarini – N.Sabirova, M.Groll, S.Abbasov (2023), B.Meliyev, O.Kuziboyeva (2023), M.Reymov, V.Statov, P.Reymov, N.Mamutov (2021), A.Abulkasimov, R.Abdunazarov, K.Yarashevlar (2012); ekologik jihatlarini A.N.Nigmatov, O.J.Matchanov (2022), P.R.Reymov, Z.U.Kannazarov, D.Y.Amandurdiyev (2021), I.Turdimambetov, E.Safarov (2015), V.A.Rafikov, Sh.Ergashev, E.K.Haydarovlar (2012); turizmga oid A.N.Nigmatov, O.Q.Tobirov (2023), I.Turdimambetov va boshqalarning (2022) tadqiqotlarida amalga oshirilgan. Lekin, ularda bevosita geofazoviy texnologiyalarni qo'llash asosida ekologik xavfsizlikka ta'sir ko'rsatuvchi xavf-xatarlarning tabiiy geografik jihatlarini monografik tarzda bayon etilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti YOA7-OT-71438YOA7-7 raqamli “Quyi Amudaryo mintaqasida qishloq xo'jalik aylanmasidan chiqqan hududlar meliorativ-ekologik sharoitini yaxshilash” mavzusidagi yosh olimlar ilmiy-amaliy loyihasi (2013-2014 yy.), Yevropa Ittifoqi “Erasmus+” dasturining “Markaziy Osiyoda atrof-muhitni muhofaza qilish: Geofazoviy texnologiyalar orqali tabiiy ofatlarni boshqarish (585383-EPP-1-2017-1-SE-EPPKA2-CBHE-JP)” loyihasi (2017-2021 yy.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Xorazm vohasi O'zbekiston qismining ekologik xavfsizligini ta'minlash uchun unga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarning tabiiy geografik jihatlarini geofazoviy texnologiyalarni qo'llagan holda baholash va tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari sifatida quyidagilar belgilab olindi:

geofazoviy texnologiyalar imkoniyatlari va ular asosida ekologik xavfsizlikni tabiiy geografik baholashning ilmiy-nazariy jihatlarini ochib berish;

tabiiy va texnogen xavflarni o'rganishga qaratilgan internet asosli axborotlarni boshqarish tizimini yaratish (iMSEP);

Xorazm vohasining tabiiy geografik chegaralarini geofazoviy texnologiyalar orqali aniqlash va ilmiy asoslash;

Xorazm vohasi O'zbekiston qismida ekologik xavfsizlikka ta'sir etuvchi qurg'oqchilik, chang-tuz bo'ronlari va cho'llashish jarayonlarini geofazoviy texnologiyalar asosida baholash metodologiyalarini yaratish va tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

Xorazm vohasi O'zbekiston qismida ekologik xavfsizlikka ta'sir etuvchi tabiiy geografik omillarni geofazoviy texnologiyalar asosida kompleks baholash metodologiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Xorazm vohasining O'zbekiston Respublikasi qismi olingan.

Tadqiqotning predmetini esa Xorazm vohasi O'zbekiston Respublikasi qismining geotizimlarini geofazoviy texnologiyalar orqali ekologik xavfsizligini

tabiiy geografik jihatlarini boshqarish tizimi va baholash metodologiyasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqot ishida dala tadqiqotlari, geografik taqqoslash, statistik va matematik tahlil, so'rovnoma, kartografik, geofazoviy tahlil, fazoviy avtokorrelyatsiya, "Hot spot" tahlil, korrelyatsiya, ko'p ko'rsatkichli baholash, Google Earth Engine kodlari orqali tahlil qilish va boshqa tadqiqot usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

geofazoviy texnologiyalar asosida ekologik xavfsizlikni tabiiy geografik baholashning ahamiyati, murakkabligi, ta'sir o'rniga ko'ra xavfsiz, xavfli, o'rtacha xavfli, yuqori xavfli va juda yuqori xavfli darajalari bo'yicha umumiy metodologiyasi ishlab chiqilgan;

Xorazm vohasining tabiiy geografik chegaralari geofazoviy texnologiyalar orqali indikatsion lokalizatsiya, chiziqli regressiya usullari orqali aniqlangan va ilmiy asoslangan;

vohada ekologik xavfsizlikka ta'sir etuvchi qurg'oqchilikni geofazoviy texnologiyalar asosida baholash metodologiyasi yaratilgan va qurg'oqchilikka qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilgan;

hududda ekologik xavfsizlikka ta'sir etuvchi chang-tuz bo'ronlari va cho'llashishni geofazoviy texnologiyalar asosida baholash metodologiyalari yaratilgan, baholangan va ularga qarshi kurashishning chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilgan;

ekologik xavfsizlikka ta'sir qiluvchi tabiiy va texnogen ofatlar xavfini o'rganishga qaratilgan internet asosli axborotlarni boshqarish tizimi (WebGIS: iMSEP) yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

geofazoviy texnologiyalar asosida ekologik xavfsizlikni tabiiy geografik baholash bo'yicha ishlab chiqilgan umumiy metodologiya Xorazm vohasida ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun zarur nazariy va amaliy yo'nalishlarni belgilab bergan;

vohaning tabiiy geografik chegaralari geofazoviy ma'lumotlarni shakllantirish, qayta ishlash orqali tashqi va ichki xavf-xatarlar turlarini aniqlash

imkonini bergan hamda hududning turli bir-biridan farq qiluvchi yer qoplami va yerdan foydalanish sinflari ajratilgan;

vohada ekologik xavfsizlikka ta'sir etuvchi qurg'oqchilik, chang-tuz bo'ronlari va cho'llashish jarayonlarini geofazoviy texnologiyalar yordamida baholash metodologiyalari asosida xavfsizlik darajalari kesimida va davriy xavfning hududiy o'zgarishini aniqlash, baholash hamda unga moslashish, tayyorgarlik ko'rish, zararli oqibatlarini kamaytirishning geografik-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy geografik, ekologik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqilgan;

ekologik xavfsizlikka ta'sir qiluvchi tabiiy va texnogen ofatlar xavfini o'rganishga qaratilgan internet asosli axborotlarni boshqarish tizimi orqali vohaga tahdid soluvchi xavf-xatarlar bo'yicha geofazoviy tahlillar olib borilgan va ular bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan natijalarining ishonchliligi Xorazm vohasidagi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmalari, gidrogeologik stansiyalar ma'lumotlaridan foydalanganligi, AQShning Geologiya xizmati (USGS), Yevropa Ittifoqining "Copernicus Data Space Ecosystem", ISRIC Data Hub kabi geoportallardagi sun'iy yo'ldoshlar geotasvirlarining tadqiqot ishida qo'llanilishi, ko'p yillar davomida to'plangan dala tadqiqot, tajriba-eksperiment, laboratoriya ma'lumotlari asosida yaratilgan kartalar, nazariy ishlanmalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ochib berilgan ekologik xavfsizlik va geofazoviy texnologiyalar tushunchalari, ularning tabiiy geografik jihatlari, geofazoviy texnologiyalarning tarkibiy guruhlari, vohaning tabiiy geografik chegaralarini ilmiy-nazariy jihatdan isbotlanganligi, qurg'oqchilik, chang-tuz bo'ronlari va cho'llashish kabi xavflarni geofazoviy texnologiyalar yordamida baholashning voha uchun ilmiy va amaliy isbotlangan bosqichlarini ishlab chiqilganligi, ko'rsatkichlarga voha tabiiy geografik sharoitidan kelib chiqqan tarzda baholash qiymatlarining berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan metodologiyalar va yaratilgan kartalarni voha geotizimlarini monitoring qilish, muhofaza qilish, aholi manzilgohlarini oqilona joylashtirish, qishloq xo'jaligi ishlarini xavf-xatarlarni inobatga olgan holda tashkil etish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish kabi sohalarda keng qo'llash imkoniyati bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Geofazoviy texnologiyalar asosida Xorazm vohasi ekologik xavfsizligini tabiiy geografik baholash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

geofazoviy texnologiyalar asosida ekologik xavfsizlikni tabiiy geografik baholashning umumiy metodologiyasi Xorazm vohasining Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy ofatlar riskini o'rganishda qo'llanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 4-fevraldagi 01/18-2-405 son va O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza

qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 24-fevraldagi 03-03/1-03/3-1850-sonli ma'lumotnomalari). Natijada, vohaga birlamchi tahdid tug'diruvchi va regional ahamiyatga ega xavflarni aniqlash, ularni xavfsizlik nuqtayi nazaridan baholash hamda kartalashtirish imkonini bergan;

Landsat 4-5 TM va Landsat 8 OLI/TIRS geotasvirlari orqali aniqlangan Xorazm vohasining tabiiy geografik chegaralari, uning hududini davriy o'zgarishlari O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalari Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirliklari faoliyatlarida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 4-fevraldagi 01/18-2-405 son va O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 24-fevraldagi 03-03/1-03/3-1850-sonli ma'lumotnomalari). Natijada, vohaning qisqargan 2884,65 km² maydoni Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiga, kengaygan maydonlari esa asosan Turkmaniston hududiga to'g'ri kelishini aniqlash imkonini bergan;

vohada ekologik xavfsizlikka ta'sir etuvchi qurg'oqchilik, chang-tuz bo'ronlari va cho'llashish jarayonlarini geofazoviy texnologiyalar asosida baholash metodologiyalari va olingan baholash natijalari O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalari Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirliklari faoliyatlarida qo'llanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 4-fevraldagi 01/18-2-405 son va O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 24-fevraldagi 03-03/1-03/3-1850-sonli ma'lumotnomalari). Natijada, strategik oziq-ovqat ekinlarini yetishtirish uchun eng xavfsiz (2 555 km²), aholi, iqtisodiy-ijtimoiy infratuzilma obyektlari va mevali bog'larni oqilona joylashtirish uchun qulay hududlarni (13 319 km²) aniqlash va ushbu maydonlar yer resurslarini strategik rejalashtirish imkonini bergan;

ekologik xavfsizlikka ta'sir qiluvchi tabiiy va texnogen ofatlar xavfini o'rganishga qaratilgan internet asosli axborotlarni boshqarish tizimi (WebGIS: iMSEP) O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Fuqaro Muhofazasi instituti tomonidan sinovdan o'tkazilgan va amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2025-yil 25-fevraldagi 30/5-30-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekiston Respublikasi hududida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarini kamaytirish hamda ular sodir bo'lganda boshqaruvni tashkil etishda qo'llash uchun iMSEPni Favqulodda vaziyatlar vazirligiga boshqaruvchi sifatida o'rnatish maqsadga muvofiqligi tavsiya qilingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur ishning tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 32 ta ilmiy ish, jumladan 1 ta monografiya, 3 ta o'quv, ilmiy va o'quv-metodik qo'llanmalar, 3 ta SCOPUS bazasidagi ilmiy va 12 ta OAK ro'yxatidagi respublika hamda xorijiy ilmiy jurnallarda, 13 ta xalqaro va milliy ilmiy-amaliy anjuman to'plamlarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, beshta bob, xulosa, amaliy tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda 16 ta ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning matn hajmi 218 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Geofazoviy texnologiyalar asosida ekologik xavfsizlikni tabiiy geografik baholashning ilmiy-nazariy jihatlarini”** deb nomlanib, unda geofazoviy texnologiyalar va ularning tasniflanishi, ekologik xavfsizlik tushunchasi, masalaning ilmiy-nazariy jihatlarini keng yoritilgan.

Ekologik xavfsizlikka tahdid tug'diruvchi xavf-xatar turi va ko'lamidan kelib chiqqan holda ularni hal qilishda geofazoviy texnologiyalarni qo'llash metodologiyasi turlichadir. Ekologik xavfsizlik termini mazmunidagi turli omillar, miqyos, tezlik va davomiylik holatlari kompleks tarzda geofazoviy texnologiyalarni qo'llash orqali o'z yechimlarini topa oladi. Chunki, bu texnologiyalar orqali vaqt va makonga oid geofazoviy ma'lumotlarni tezkor tarzda olish, qayta ishlash, tahlil qilish va baholash imkonini mavjud. Shundan kelib chiqqan holda ekologik xavfsizlikni tabiiy geografik jihatdan baholashda geofazoviy texnologiyalardan foydalanishning umumiy metodologiyasi taklif qilindi (1-rasm). Geografik tadqiqotlar metodologiyasiga ko'ra hududga oid ma'lumotlar dala ekspeditsiyalari, mavjud adabiyotlar, kartografik manbalar, statistik, aerofoto tasvir, so'rovnomalar va boshqa manbalardan olinadi va tahlil qilinadi. Ammo, bu kabi ma'lumotlar, ayniqsa, regional tabiiy geografik tadqiqotlarda muammolar yechimini topish uchun yetarli emas. Chunki, geotizimlar davriy va dinamik o'zgaruvchan hamda antropogen ta'sir doirasida bu o'zgaruvchanlik intervali yanada qisqarmoqda. Bunday hollarda geofazoviy texnologiyalardan foydalanish samaralidir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Xorazm vohasi va uning O'zbekiston qismi mustaqil tabiiy geografik tadqiqot obyekti va unda ekologik xavfsizlik holati”** deb nomlangan. Unda Xorazm vohasi va uning O'zbekiston qismi o'ziga xos tabiiy geografik tadqiqot obyekti ekanligi, ekologik xavfsizlik holatiga ta'sir etuvchi omillarning geofazoviy tahlili va bugungi kundagi tabiiy geografik jarayonlarning ekologik xavfsizlikka ta'siri keltirilgan. Shu bobda Landsat 4/5-TM va 8 OLI/TIRS sun'iy yo'ldoshlarining 1998, 2010 va 2014-yilga tegishli geotasvirlari asosida Xorazm vohasining tabiiy geografik chegaralari aniqlangan (2-rasm). Xorazm vohasida ekologik xavfsizlikka ta'sir etuvchi birlamchi omillar – qurg'oqchilik, cho'llashish va chang-tuz bo'ronlari ekanligi ilmiy asoslab berilgan.

Geofazoviy texnologiyalar yordamida hududlar tabiiy geografik sharoitining ko'plab ko'rsatkichlarini davriy o'rganish va monitoring qilish imkoniyatlari


mavjud. Ammo, alohida tadqiqotlarda, ekologik xavfsizlik nuqtai nazaridan, geofazoviy texnologiyalarni har bir komponent yoki uning barcha xususiyatlarini o'rganish uchun qo'llash ko'p vaqt talab qiladi. Shu sababli vohada mavjud xavf-xatarlar hamda birlamchi ta'sir etuvchi jarayonlar asosida ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan geofazoviy tahlillar o'tkazish zarur.



1-rasm. Ekologik xavfsizlikni tabiiy geografik jihatdan baholashda geofazoviy texnologiyalardan foydalanishning umumiy metodologiyasi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Xorazm vohasi O‘zbekiston qismida ekologik xavfsizlikka ta’sir etuvchi qurg‘oqchilikni geofazoviy texnologiyalar asosida baholash”** deb nomlangan. Ushbu bobda qurg‘oqchilik va uning shakllanishi, turlari hamda hududiy xususiyatlari turli xil manbalar asosida tahlil qilingan. Qurg‘oqchilikni tadqiq qilishning geofazoviy texnologiyalarga asoslangan metodologiyalari o‘rganilgan va Xorazm vohasi uchun alohida

metodologiya ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, qurg'oqchilik xavfi, voha miqyosida, tabiiy geografik jihatdan baholangan kartalari tuzilgan.



2-rasm. Xorazm vohasining tabiiy geografik chegaralari, uni anqlash metodologiyasi va O'zbekiston Respublikasi qismi karta-sxemasi.

Qurg'oqchilikka ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarning 2000-qurg'oqchil va 2022-yildagi irrigatsiya suvi yetarli bo'lgan iyul oylaridagi holati Landsat 4-5 TM, Landsat 8 OLI/TIRS geotasvirlari asosida tahlil qilindi. Chunki, 2000-yildagi geotasvirlar qurg'oqchilik natijalari aniqligini tekshirish va tanlangan ko'rsatkichlarning korrelyatsion aloqadorligini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Qurg'oqchilikni o'rganishda yer yuzasi harorati ko'plab tadqiqotchilar tomonidan asosiy ko'rsatkich sifatida qo'llangan uni hisoblashda Landsat 5TM (band-6), Landsat 8 OLI/TIRS larning (band-10 va 11) termal to'lqin uzunliklarini ifodalovchi (band) geotasvirlaridan foydalanildi va quyidagi formula qo'llanildi:

$$LST = T_b / [1 + (\alpha * T_b / C_2) * \ln(\epsilon)]$$

Climate Engine platformasi orqali 2013 – 2023-yillardagi yer yuzasining ko'p yillik o'rtacha harorati va ko'p yillik o'simlik qoplami (NDVI) holati dasturda tegishli so'rovni shakllantirish orqali yuklab olindi.

Albedo qurg'oqchilikni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Landsat sun'iy yo'ldoshlari tizimida yer/tuproq yuzasining harorati asosan termal band orqali aniqlanadi va bu esa shu bandni ifodalovchi to'lqin uzunligining tuproq yuzasi

haroratiga ta'siri kattaligini ko'rsatadi. Shu sababli ham, yuzaning nur qaytarish qobiliyatini hisoblaganda termal banddan bo'ladigan albedoni aniqlash talab qilindi. Termal bandidagi albedo qiymati uchun quyidagi formuladan foydalanildi:

$$TB = (k_2 / \ln[k_1 / I\lambda(0) + 1])$$

Landsat 4-5 TM, $k_1 = 607.76 \text{ Wm}^{-2} \text{ sr}^{-1} \mu\text{m}^{-1}$ va $k_2 = 1260.56 \text{ K}$.

Landsat 8 OLI/TIRS, $k_1 = 480.89 \text{ Wm}^{-2} \text{ sr}^{-1} \mu\text{m}^{-1}$ va $k_2 = 1201.14 \text{ K}$.

k_1 va k_2 to'g'irlash koeffitsiyentlari.


Qurg'oqchilik yillarida yer osti suvlarining ahamiyatiga oid ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Ishida ZEF/UNESCO ilmiy-tadqiqot loyihaning 1990 – 2004-yillar, Xorazm viloyati va Qoraqalpog'istondagi gidrogeologik stansiyalarning 2018 – 2021-yilgi ma'lumotlari hamda dala kuzatuvlari ma'lumotlaridan foydalanildi. Shu bilan birga, vohaga tegishli SRTM, ASTER, ALOS DSM, Google Earth balandlik ma'lumotlari qiyosiy tahlil qilindi, so'ngra natijalar SRTM balandlik ma'lumotlari aniqligi yuqoriligi sababli vohaning relyefini baholash uchun qo'llanildi.

Namlik indeksining me'yorlashtirilgan farqiga nisbatan xavfsizlik darajalarini belgilashda tadqiqotchilarning o'simlik tarkibidagi namlik qiymatining o'zgarishiga oid tadqiqotlaridan foydalanildi. Uning ko'p yillik o'rtacha qiymatlarini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi va Landsat 8 OLI/TIRS ning 01.07.2013-31.07.2023 yilgi band 5 va 6 geotasvirlari Google Earth Engine veb platformasidan yuklab olindi:

$$NDMI = (B05 - B06) / (B05 + B06)$$

Ko'p yillik kuzatishlarga ko'ra, Xorazm vohasining Amudaryo suv rejimiga bog'liqligi sababli, uning daryodan uzoq yoki yaqinlik holati qurg'oqchilikka ta'sir ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkich sifatida tanlanishiga asos bo'ldi. Amudaryoning Taxiatosh gidrouzeligacha bo'lgan daryo qismi tanlab olindi. Buning asosiy sababi daryo suvining shu joydan keyin asosan kanallar orqali ekin dalalariga taqsimlanishidir. Asosiy kanallar zichligi ham ushbu tahliliy ishlarda qo'llanildi.

Ekologik xavfsizlik jihatidan qaraganda, muayyan hududda xavfni har qanday darajasining mavjudligi xavfsizlikni ta'minlash zuratini ko'rsatadi. Bundan tashqari, hududdagi ko'rsatkichlarni qurg'oqchilikka ta'siri, oqibati yoki undan ko'riladigan zarar miqdoriga qarab baholash maqsadga muvofiq bo'ladi. Baholash qiymatlarining dala kuzatuv natijalariga tayangan asosli, turli ko'rsatkichlarning o'zaro ta'siriga bog'liq bo'lgan teng qiymatli va ta'sir kuchi sezilarsiz, noaniq bo'lgan holatlar uchun fazoviy avtokorrelyatsiyaga asoslangan shartli bo'lishi taklif qilindi. Barcha ko'rsatkichlarning xavfsizlik darajalarini belgilashda ularning korrelyatsion bog'liqliklariga katta e'tibor berildi. Xavfsizlik darajalari yerdagi holatga mos bo'ldi, natijalar qoniqarsiz holatlar uchun Hot spot tahlillari amalga oshirildi. Shular asosida qurg'oqchilikka ta'sir qiluvchi asosiy ko'rsatkichlar xavfsizlik darajalariga ajratildi, ularning ta'sir kuchidan kelib chiqib, analitik iyerarxiya, subyektiv tahlil (the best-the worst) va kuzatishlar, obyektiv holatga ko'ra ahamiyat qiymatlari berildi (3-rasm). Ushbu ahamiyat qiymatlarini ko'rsatishda geotizimning barcha komponentlari baholash subyektivi sifatida qaralishi mumkin. Shu jumladan, inson va uning xo'jalik faoliyati ham asosiy



3-rasm. Vohaning qurg'oqchilikka nisbatan xavfsizlik kartasi.

e'tibor markazida bo'ladi. Ko'rsatkichlarning tanlangan ahamiyatlilik qiymatlari quyidagi formula yordamida hisoblandi:

$$Q = \sum_{i=1}^n W_i * X_i$$

Q-qurg'oqchilikka nisbatan xavf, W_i tanlangan ko'rsatkichning ahamiyatiga ko'ra qiymati, X_i tanlangan ko'rsatkichning piksel qiymati. Shu asosida vohaning qurg'oqchilikka nisbatan xavfsizlik ko'rsatkichlari aniqlandi (1-jadval).

1-jadval.

Vohaning qurg'oqchilikka nisbatan xavfsizlik darajalari (km.kv).

Xavfsizlik darajasi	Umumiy	Qoraqalpog'iston	Xorazm	Bufer hudud
Xavfsiz	3746.0	1139.15	2352.59	254.26
Xavfli	4644.32	2484.61	1426.19	333.52
O'rtacha-xavfli	5563.77	3974.16	328.59	1261.02
Yuqori xavfli	5486.17	3682.5	62.18	1741.4
Juda yuqori xavfli	7832.64	2894.51	0	4938.13

Olib borilgan kuzatishlar, dala tadqiqotlari va ularning xulosalarga ko'ra qurg'oqchilikka nisbatan turli xildagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish har bir xavf hududi uchun alohida bo'lishini talab qiladi. Qurg'oqchilikka nisbatan chora-tadbirlarni doimiy ilmiy tadqiqot ishlari asosida yangilanib, shakllanayotgan vaziyatga moslashtirib, rivojlantirib borish tavsiya qilinadi.

Dissertatsiya ishining **“Xorazm vohasi O'zbekiston qismida ekologik xavfsizlikka ta'sir etuvchi chang-tuz bo'ronlari va cho'llashish jarayonlarini geofazoviy texnologiyalar asosida baholash” deb nomlangan** 4-bobida ekologik xavfsizlikka ta'sir etuvchi chang-tuz bo'ronlari va cho'llashishni geofazoviy texnologiyalar asosida baholash metodologiyalari, xavfsizlikka ta'sirini baholash natijalari va moslashishning geoekologik chora-tadbirlari keltirilgan.


O'zbekiston aholisining 27 mln.dan ko'p qismi chang-qum va tuz bo'ronlari riski ostida istiqomat qiladi. Dunyo va respublikamizda chang-tuz bo'ronlariga oid tadqiqotlar va vohaning tabiiy geografik sharoiti tahlil qilindi. Vohada chang-tuz bo'ronlarini geofazoviy texnologiyalar orqali tahlil qilishda ko'p yillik shamollarning o'rtacha tezligi (tezlik yuqori oylarda), ko'p yillik o'rtacha tuproq harorati va o'simlik qoplami (NDVI), tuproqning mexanik tarkibi, atmosfera havosidagi changlarning ko'p yillik o'rtacha optik zichligi va gidrografik obyektlarning qurib qolish davrlari olindi. Shular asosida chang-tuz bo'ronlarga nisbatan xavfsizlikni geofazoviy texnologiyalar orqali baholash metodologiyasi ishlab chiqildi (4-rasm).

Vohada xavfsiz maydonlarning 2773.7 km.kv qismi Xorazm viloyatiga va 1324.53 km.kv qismi esa Qoraqalpog'istonga va 417.77 km.kv qismi esa bufer zonaga to'g'ri keladi (2-jadval). Deyarli barcha boshqa xavfsizlik darajalarining katta qismi Qoraqalpog'iston hududiga to'g'ri keladi. Faqatgina vohaning Chimboy-Nukus-Ko'hna Urganch shaharlari yo'nalishida Orol dengizidan keladigan chang-tuzlarning ustunligini ko'rish mumkin (5-rasm). Boshqa barcha hollarda xavfsizlik holati shimoliy yo'nalishda pasayib boradi. Chang-tuz bo'ronlariga nisbatan xavfsizlikni ta'minlash, oldini olish, moslashish va unga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha birlamchi chora-tadbirlarni vohaning Qoraqalpog'iston qismidan boshlash maqsadga muvofiq.

2-jadval

Vohaning chang-tuz bo‘ronlariga nisbatan xavfsizlik darajalari (km.kv).


Xavfsizlik darajasi	Umumiy	Qoraqalpog‘iston	Xorazm	Bufer hudud
Xavfsiz	4516	1324.53	2773.7	417.77
Xavfli	6916.9	4407.53	1212	1297.37
O‘rtacha-xavfli	7577.3	4352.39	141.6	3083.31
Yuqori xavfli	5678.5	2272.85	5.9	3399.75
Juda yuqori xavfli	2584.2	773	0	1811.2



4-rasm. Xorazm vohasida chang-tuz bo‘ronlariga nisbatan ekologik xavfsizlikni geofazoviy texnologiyalar orqali baholash metodologiyasi.


Geofazoviy texnologiyalar yordamida cho‘llashish jarayonini o‘rganish, uning xavf ko‘lamini baholash, ayniqsa Xorazm vohasi kabi cho‘llar bilan chegaradosh hududlar uchun birlamchi masala hisoblanadi. Shu bilan birga cho‘llashish voha geotizimiga tahdid soluvchi asosiy turdagi ekologik xavflardan biridir.

Bugungi kunga kelib, dunyo miqyosida NDSI, NDESI, SARIMA, NDSLI kabi indekslar yordamida cho‘l va cho‘llashish jarayonlariga ta’sirchanlik, rivojlanishi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan geofazoviy texnologiyalarni qo‘llagan holda baholangan. Ammo, cho‘llar shakllanishi va tuzilishining turli



5-rasm. Vohaning chang-tuz bo'ronlariga nisbatan xavfsizlik kartasi.

xilligi, cho‘llashish jarayonlarini o‘rganish va baholashda tanlangan ko‘rsatkichlarning xilma-xilligiga sababchi bo‘lgan. Shu sababli voha uchun alohida cho‘llashishga nisbatan ekologik xavfsizlikni baholash metodologiyasi ishlab chiqildi (6-rasm).



6-rasm. Xorazm vohasida cho‘llashishni geofazoviy texnologiyalar asosida baholash metodologiyasi.

Vohaning cho‘llashishga nisbatan xavfsizlik holatini baholashda yer yuzasining harorati, o‘simliklar bilan qoplanganligi, ko‘p yillik yog‘inlar, shamollar, havo harorati, yer osti suvlarining ko‘p yillik o‘rtacha qiymatlari asosiy ko‘rsatkichlar bo‘lib xizmat qiladi. Vohada ushbu ko‘rsatkichlarning o‘zaro korrelyatsion aloqadorligi yo‘qligi vohada sug‘orma dehqonchilikning yaxshi rivojlanganligi bilan bog‘liq bo‘lib, yuqori korrelyatsion bog‘liqlik vohaning chekka cho‘lga tutash qismlarida kuzatildi. Shu sababli ham tadqiqot obyektida yer qoplami va yerdan foydalanish sinflarini aniqlash va shu hududlar asosida xavfsizlikni baholash ishlarini tashkil qilish zarur bo‘ldi. Vohaning cho‘llashishga nisbatan xavfsizlik darajalari Qoraqalpog‘iston va Xorazm viloyati hamda bufer hududlar bo‘yicha tahlil qilindi (3-jadval). Vohaga tahdid tug‘diruvchi cho‘llashish xavfining katta maydonlari uning chekka qismlarida shakllangan. Ichki cho‘llashish xavfi yuqori hududlar Qoraqalpog‘istonda katta maydonlarda shakllangan bo‘lib, ta’sir qiluvchi ko‘rsatkichlarning davriy o‘zgaruvchanligi bu maydonlarning o‘zgarib turishiga olib keladi.

3-jadval.**Vohaning cho'llashishga nisbatan xavfsizlik holati (km.kv).**

Xavfsizlik darajasi	Umumiy	Qoraqalpog'iston	Xorazm	Bufer hudud
Xavfsiz	19720.9	11897.37	3910.9	3912.63
Xavfli	3783.2	1148.12	87.15	2547.93
O'rtacha-xavfli	1503.55	728.8	61.4	713.35
Yuqori xavfli	1054.79	367.5	66.1	621.19
Juda yuqori xavfli	1210.46	101.23	16.8	1092.43


Dissertatsiya ishining beshinchi bobi “**Xorazm vohasi O'zbekiston qismida ekologik xavfsizlikka ta'sir etuvchi tabiiy geografik omillarni geofazoviy texnologiyalar asosida kompleks baholash**” deb nomlanib, unda vohada ekologik xavfsizlikka ta'sir etuvchi tabiiy geografik omillarni geofazoviy texnologiyalar asosida baholash metodologiyasi, ekologik xavfsizlikka ta'sir etuvchi tabiiy geografik omillarni geofazoviy texnologiyalar asosida kompleks baholash natijalari yetarlicha ilmiy asoslab berilgan (7-rasm).

Vohaning ekologik jihatdan xavfsiz hududlari 2555.044 km.kv ga teng bo'lib uning 76.5% Xorazm viloyati va 23.5% i Qoraqalpog'istonga to'g'ri keladi. 45.19 km.kv.li xavfsiz maydon vohaning Turkmaniston qismidagi bufer zonada shakllangan (4-jadval). Vohaning 62.5% xavfli qismlari Qoraqalpog'iston hududlarida shakllangan.

4-jadval.**Xorazm vohasining O'zbekiston qismida ekologik xavfsizlik darajalari (km.kv).**

Xavfsizlik darajasi	Umumiy	Qoraqalpog'iston	Xorazm	Bufer hudud
